

Haq evaziga xizmat ko'rsatish

ShARTNOMASI

2024-yil "23" yanvar 10 -son

Samarqand shahar.

Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi nomidan, Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshqarma boshlig'i R.T.Mamatov (*keyingi o'rinlarda "Ijrochi"*), bir tomondan hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi rektor X.B.Yunusov (*keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi"*) ikkinchi tomondan, birgalikda Tomonlar deb ataladi, quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1. "Ijrochi" o'z zimmasiga mas'ul xodimni ajratgan holda "Buyurtmachi" hududida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish majburiyatini, "Buyurtmachi" esa ko'rsatilgan xizmatlar uchun mazkur Shartnoma shartlarida ko'rsatilgan tartibda amaldagi qonunchilik bo'yicha haq to'lash majburiyatini oladi.

II. Umumiy shartlar

2.1. "Ijrochi" mazkur Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan majburiyatni bajarish uchun **1 (bir)** nafar xodim ajratadi.

2.2. Shartnomaning 1.1-bandi Tomonlar kelishuvi bo'yicha ishlab chiqilgan va tasdiqlangan huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish yo'riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi.

2.3. Huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda, obyektning chegara hududlari (*inshootlari, qurilmalari*), javobgarlik hududlari ushbu shartnomaga ilova qilingan va uning ajralmas qismi hisoblangan reja-sxema va xizmatni o'tash joyi ko'rsatiladi.

2.4. Obyekt muhandislik-texnik va xavfsizlik tizimlari bilan "Buyurtmachi" tomonidan jihozlanadi.

2.5. "Ijrochi" ajratilgan xodimni xizmatini amalga oshirishi uchun belgilangan tartibga muvofiq kiyim-bosh va anjomlari (*ekipirovka*) bilan ta'minlangan holda yuboradi.

2.6. Ichki ishlar organlarining xodimlari ushbu shartnoma imzolaniib, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi tomonidan shtat birliklari ajratilganidan so'ng obyektga jalb etiladi.

III. Xizmat haqi va hisob-kitob qilish tartibi

3.1. Mazkur shartnomaning umumiy summasi 2024-yil yanvar-mart oylari uchun 38 998 070 (*O'ttiz sakkiz million to'qqiz yuz to'qson sakkiz ming yetmish*) so'mni tashkil etadi. Bunda xizmat ko'rsatuvchi xodimning bir oylik pul ta'minoti summasi 12 786 973 (*O'n ikki million yetti yuz sakson olti ming to'qqiz yuz yetmish uch*) so'mni, mart oyida qoshimch to'lov 637 151 (*Olti yuz uttiz yetti ming bir yuz ellik bir*) so'mni tashkil etadi.

3.2. Ko'rsatiladigan xizmatlarning narxi ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Tomonlar o'rtasida tuziladigan hisob-smetasiga asosan belgilanadi.

3.3. "Ijrochi" xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish qonunchilik hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

3.4. Ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lov "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ning hisob raqamiga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan oylik to'lovning 100 foizini keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.5. Xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblangan "Buyurtmachi" mazkur Shartnomada ko'rsatilgan oylik to'lovni (*avans to'lovini*) o'z vaqtida to'lamasa, "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

3.6. Mazkur Shartnoma bekor qilingan hollarda "Ijrochi" "Buyurtmachi" bilan to'langan to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur.

IV. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. "Buyurtmachi" quyidagi huquqlarga ega:

- a) "Ijrochi"dan belgilangan xizmat ko'rsatish tartibiga rioya etishini talab qilish;
- b) "Ijrochi" xodimlarining xizmatni o'tashdagi kamchiliklar va qoidabuzarliklarini bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rishni talab qilish;
- d) "Ijrochi" xizmatini tashkil qilish va amalga oshirilishini nazorat qilish;
- e) "Ijrochi" tomonidan intizom buzilishining har bir holati bo'yicha tegishli choralar ko'rish maqsadida "Ijrochi"ning vakili ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish;
- f) "Ijrochi" tomonidan xizmatlar lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

4.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

- a) "Ijrochi" tomonidan ajratilgan xodimga xizmat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va moddiy-texnika jihozlari bilan ta'minlash;
- b) xizmatlarni to'liq miqdorda va sifatli ko'rsatilishini talab qilish;
- d) "Ijrochi" tomonidan taqdim etib boriladigan ma'lumotlar va hisobotlarni umumlashtirish va ularning natijalari yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- e) "Ijrochi" vakillarini obyektidagi ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalari bilan hamda ularning o'z vazifalarini bajarishiga oid qismi bilan tanishtirish;
- f) "Ijrochi"ning xodimlari soni, xizmatni tashkil etish tartibi, shuningdek belgilangan xizmatni ko'rsatish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni begona shaxslarga oshkor qilmaslik;
- g) "Ijrochi"ga mazkur Shartnomaga asosan belgilangan xizmat haqini, rag'batlantirishlarni ko'rsatilgan muddatlarda to'lab berilishini kafolatlaydi va amalga oshiradi.

4.3. "Ijrochi"ning huquqlari:

- a) mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;
- b) belgilangan hududda vakolatlari doirasida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish yuzasidan "Buyurtmachi"ga tavsiyalar berish.

4.4. "Ijrochi"ning majburiyatlari:

- a) belgilangan vazifalarni bajarish uchun ushbu Shartnomada ko'rsatilgan zarur xodimlar sonini ajratish;
- b) ushbu Shartnoma va uning ilovalariga muvofiq xodimlarning o'z funksional vazifalarini lozim darajada bajarishlarini tashkil etish;
- d) belgilangan hududda jinoyatchilikni oldini olish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish;
- e) hududda jinoyatchilikni oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'z vakolati doirasida surishtiruv ishlarini amalga oshirish;
- f) hududda huquqbuzarliklarni sodir etish sabablarini hamda uni sodir etishga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rish;

munosabatda bo'lish shartligi haqida ko'rsatma va tushuntirishlar berishi majburiy etib belgilandi. Shuningdek, taraflar bunday shaxslardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmasligi va oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilishi shart. Ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik majburiyati ham korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlardan biri etib belgilandi.

6.3. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga oid belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi, shuningdek ushbu tarafdan ma'lum muddat ichida tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor etishini talab qilishi shart. Tarafning bu talabi ikkinchi taraf tomonidan bajarilmagan taqdirda, ushbu taraf Shartnomani bir tarflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

VII. Nizolarni hal etish

7.1. Ushbu Shartnomani bajarish chog'ida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda nizo sud tartibida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari asosida hal etiladi.

VIII. Fors-major

8.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun, agar bunday holat ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin va Tomonlar oqilona chora-tadbirlar bilan oldini ololmagan favqulodda tuzdagi voqealar oqibatida paydo bo'lgan bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

8.2. Ushbu Shartnomada qayd etilgan vaziyatlar tufayli o'z majburiyatini bajara olmaydigan Tomon mazkur bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar paydo bo'lgan kundan boshlab ikki kun muddatda ikkinchi Tomonni bunday holat yuzaga kelgani, keyinchalik esa to'xtatilgani haqida yozma ravishda xabardor qiladi.

8.3. Fors-major holatlari va ularning oqibatlari uch oydan ortiq davom etsa, "Ijrochi" va "Buyurtmachi" Shartnomani davom ettirishning maqsadga muvofiqligini muhokama qiladi va agar bir oy muddat ichida o'zaro kelishilgan qarorga kelmasa, har bir Tomonga hech qanday talablar qo'ymasdan ushbu Shartnomani bekor qilish huquqi beriladi.

IX. Yakunlovchi qoidalar

9.1. Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi tomonidan shtat birligi ajratilgandan so'ng kuchga kiradi. Shartnoma tuzilgan vaqt uni Tomonlar imzolagan sana bilan belgilanadi.

9.2. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir va uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

9.3. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha – Tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar;

budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilari bo'yicha – belgilangan tartibda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yilning 31 dekabr kunigacha.

"Buyurtmachi" xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lgan taqdirda "Buyurtmachi" mazkur Shartnomani bekor qilish haqida "Ijrochi"ga Shartnoma muddati tugashidan 30 kun oldin

g) javobgarlik hududlarida huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni qo'lga olishga qaratilgan choralarni amalga oshirish;

h) belgilangan hududda yong'in xavfsizligi, sanitariya qoidalari va normalarini ta'minlashga qaratilgan ishlarni olib borish;

i) favqulodda holatlar sodir bo'lganda bu haqda zudlik bilan hududiy ichki ishlar organlari, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari hamda "Buyurtmachi" vakilini xabardor qilish, jinoiy harakatlarni bartaraf etishda ularga yordam ko'rsatish choralari ko'rish;

j) "Ijrochi" tomonidan yo'l qo'yilgan majburiyatning har bir qoidabuzarlik holati yuzasidan "Buyurtmachi" va "Ijrochi"ning vakillari ishtirokida 2 (ikki) nusxada dalolatnoma tuzish, bir nusxasini tegishli choralar ko'rish uchun "Ijrochi" rahbariga taqdim etish;

k) favqulodda holatlar sodir bo'lganda ichki ishlar organlarining maxsus bo'linmalari va boshqa tegishli idoralar yetib kelguniga qadar jamoat tartibini saqlash bo'yicha zarur choralar ko'rish;

l) favqulodda holatlarda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash uchun evakuatsiya, qutqaruv va boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

V. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Ushbu Shartnomada ko'rsatilgan summa "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Ijrochi"ga har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning miqdori muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.2. "Ijrochi"ning xodim(lar)i Shartnoma doirasida xizmat ko'rsatmaganida "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to'laydi, biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

5.3. "Ijrochi"ning aybi bilan yetkazilgan zararining miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo'lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

5.4. Taraflarning ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq qo'llaniladi.

5.5. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan neustoyka (*jarima, penya*)ni to'lash hamda zararni qoplash Tomonlarni Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

VI. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

6.1. Har bir taraf Shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan quyidagilarni kafolatlaydi:

- a) qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini;
- b) shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini;
- d) moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz olinmaganligini.

6.2. Taraflar o'z nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi hamda ularga nisbatan murosasiz

ma'lum qilmasa, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va xuddi shu shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi.

9.4. Ushbu Shartnomani bekor qilishdan manfaatdor Tomon boshqa Tomonni istalgan muddatdan bir oy oldin bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart.

9.5. Mazkur Shartnoma bo'yicha ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.

9.6. Ushbu shartnoma uch nusxada tuzilib, uch nusxa bir xil yuridik kuchga ega va har bir Tomonlarda hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligida ushbu Shartnomaning bir nusxasi saqlanadi.

X. Tomonlarning manzili va rekvizitlari

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ИИБ
Самарқанд ш. Бустонсарой кўчаси 89-уй
Самарқанд вилоят Марказий банки
Хисоб-касса Маркази
X/P: 21506000601638947009
MFO: 00022 ИНН: 201214240
ОКОНХ: 97400

Yuridik manzili:

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ИИБ
Самарқанд ш. Бустонсарой кўчаси 89-уй
Самарқанд вилоят Марказий банки
Хисоб-касса Маркази
X/P: 21506000901638947005
MFO: 00022 ИНН: 201214240 ОКОНХ: 97400

Bank rekvizitlari:

MFO:

STIR:

XXTUT:



Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i

R.T.Mamatov

15.01.24
(imzo, muhr)

**САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ИЧКИ ИШЛАР
БОШҚАРМАСИ ТАШКИЛИЙ БОШҚАРМА
YURIDIK TA'MINLASH GURUHI
HUQUQIY EKSPERTIZADAN O'TKAZILDI
SHARTNOMA**
№ 10 raqam bilan qayd etildi
2024 yil «15» yanvar

“Buyurtmachi”

(to'liq nomi)

**САМАРҚАНД ДАВЛАТ ВЕТЕРИНАРИЯ МЕДИТСИНАСИ
САМАРҚАНД ДАВЛАТ ВЕТЕРИНАРИЯ МЕДИТСИНАСИ ЧОРВАЧИЛИК
УНИВЕРСИТЕТИ**
Самарқанд ш. М.Уlug'bek ko'chasi 77-уй
Tel/Fax: + (99866) 234-78-82, 234-76-86
SHX: 400910260181017099100250009
ИНН: 2012251000
Bank rekvizitlari: ОКОНХ: 92110 Moliya vazirligi
Самарқанд вилояти g'aznachilik boshqarmasi Yagona g'axna
H/v: 2340 2000 3001 0000 1010
Markaziy bank XKKM Toshkent shahri boshqarmasi
MFO: 00014 INN: 201122919

Yuridik manzili:

Bank rekvizitlari:

MFO:

STIR:

XXTUT:

SamDVMChBU rektori

X.B.Yunusov



(imzo, muhr)
D. Eshmatov

Самарқанд вилояти ИИБ ҲПБга ОТМ ҳисобидан олинган ходимнинг 2024 йил учун ойлик иш ҳақи ва тўланадиган бошқа харажатларнинг (Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети) Ҳ И С О Б И

№	Лавозими	Бир ойлик харажатлар						ЖАМИ	2024 йил учун тўланадиган харажатлар хаммаси
		Бир ойлик иш ҳақи	Бир ойлик 25 фоиз ЯИТ (иш берувчи томонидан тўлов)	Бир ойлик кийим-кечак харажати	Бир ойлик таъминоти (хўж. ва канц. мол.сотиб олиш)	Бир ойлик хизмат сафари харажати	Бир ойлик суғурта тўлови		
1	ҲПБ профилактика инспектори (Найимов Б.Р.)	10 124 685	2 256 621	300 000	100 000	0	5 667	12 786 973	153 443 676
2	2023 йил декабрь ойи фарқи	516 181	120 970					637 151	637 151
	Жами:	10 640 866	2 377 591	300 000	100 000	0	5 667	13 424 124	154 080 827



Самарқанд вилояти ИИБ
МТХ бошқани
Самарқанд вилояти ИИБ
МТХ бошқани уринбесари

ректор



[Handwritten signature]

И.Э.Худойбердиев

[Handwritten signature]

Ж.Б.Бекмухамедов

[Handwritten signature]
К.В. Юнусов